

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

5120100-Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi
IV bosqich 011-11-guruh talabasi

IMOMOVA MOHINURNING
“O‘ROZ HAYDAR SHE’RIYATINING G‘OYAVIY-BADIIY
XUSUSIYATLARI”
mavzusida yozgan

REFERATI

Talaba _____ M.Imomova

Ilmiy rahbar _____ f.f.n.S.Mo‘minova

“ _____ ” _____ 2015- yil

QARSHI–2015

MUNDARIJA

KIRISH.....

1. O‘roz Haydar she‘riyatida lirik qahramon va zamon ruhi.....
2. O‘roz Haydar sonetlarining badiiy jihatlari.....
3. O‘roz Haydar she‘riyatida badiiy-tasviriy vositalar.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....

KIRISH

Zamonaviy o'zbek adabiyoti, ayniqsa, she'riyatining xilma xil yo'nalishda rivojlanayotganligi uning yorqin istiqbolidan dalolatdir. Bugungi kunda avlodlarimiz kamoloti yo'lida xizmat qiladigan yangi davr o'zbek adabiyotimizning muqaddas namunalarini chuqur ilmiy talqin etish, omma ongiga singdirishning naqadar muhimligi haqiqatdir. Prezidentimiz I. Karimov milly adabiyotimizni rivojlantirish, adabiy jamoatchilik oldida turgan dolzarb vazifalar haqida shunday degan edi: “ Ziyolilarning ilg'or qismi bo'lmish badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o'rni va ta'siri beqiyosdir”¹. Shu ma'noda, jamiyat hayotida o'zining alohida mavqeiga ega shoir O'roz Haydar ijodi har tomondan chuqur o'rganishga loyiq. O'roz Haydar ijodi yoshlarni istiqbol g'oyalari ruhida tarbiyalash, insonlar ongi-tafakkurini o'stirishda katta ahamiyatga ega.

¹ I.A.Karimov. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. “Sharq yulduzi” jurnali, 2009, 3-son, 4-bet.

1. O‘roz Haydar she‘riyatida lirik qahramon va zamon ruhi

O‘roz Haydar 1957-yilda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi Navro‘z qishlog‘ida tug‘ilgan. 1974-yilda tumandagi Nazar Shukur nomli maktabni bitirib, so‘ng O‘zbekiston Milliy universitetida tahsil oldi. Uning o‘ndan ortiq kitoblari chop etilgan. She‘rlari ingliz, rus, turk, tojik tillariga tarjima qilingan. O‘roz Haydar 1957- yil 8- aprelda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi Navro‘z qishlog‘ida tug‘ilgan. ToshDUning geografiya fakultetini tugatgan (1980). «Quyosh o‘tovi» (1984), «Kuylovchi toshlar» (1990), «Musiqor», «Qizaloq va qizg‘aldoq» (1993), «Hazilkash qish» (1997), «Aksioma» (2003), «Oq soya» (2004), «Yaylovdagi oq o‘tov» (2005), «Ruhafzo» (2006) kabi she‘riy to‘plamlari nashr etilgan. Nasriy asarlari — «Xatarli xilvatgoh» (1996), «Yovuzlik sirtmog‘i» (1998), «En» (2004), «Talvasa» (2004). «Kechikmagan tazarru» (2003) dramasi ham bor.

O‘roz Haydar dastlab an‘anaviy usulda ijod qildi. Keyingi yillarda uslubini keskin o‘zgartirdi. Ispan she‘riyatini, jumladan, Lorka nazmini, fransuz eksistensialchi yozuvchilar ijodini, nemis faylasufi F.Nusshening durdona asarlarini astoydil o‘rganib chiqdi. Shuning samarasi sifatida ijodi yuqori pog‘onaga ko‘tarilgani ayrim she‘rlaridan ma‘lum. U obrazlarni ketma-ket harakatlantirish usulini o‘zicha kashf etdi. Xuddi shu ma‘noda Nazar Eshonqulning quyidagi fikr-mulohazalariga qo‘shilmoq mumkin: “O‘roz Haydar savqiyu g‘alayonlarining shovur va saslari, evrilish va inkorlari o‘ziga xos ohang, obraz qiyofasida yaxlitlashadi. Shoirning shunday quyma tashbehlari borki, bular bugungi she‘riyatimizning o‘ziga xos yutug‘i sanaladi”².

² O‘roz Haydar. Ruhafzo. Toshkent, Zarqalam nashriyoti, 2006. 4-bet.

Ushbu avlod izlanishlari, xususan, O‘roz Haydar ijodi o‘zining ijtimoiy-estetik ahamiyati bilan, olamni va odamni badiiy-falsafiy tushunishi hamda tushuntirishi bilan ajralib turadi. Tabiat, jamiyat hodisalarini, ruhiy olam sir-sinoatlarini idrok va ifoda qilishdagi obrazlilik, hayotiy detallarning yorqinligi, poetik obrazlarning ma‘nodorligi, sermiqyoslilik o‘quvchilar safini kengaytirmoqda. Shoirning badiiy-estetik izlanishlari adabiyotshunos olimlar, mutaxassislar, muxlislarning doimiy diqqat e‘tiborida.

O‘roz Haydar she‘rlari mutolaasi chog‘ida shu narsa oydinlashadiki, har bitta she‘r umumiy holda kartinaning bitta bo‘lagi. Sher‘lar oldinma ketin o‘qib chiqilsa xuddi she‘riy roman taassurotini beradi. Bu holat ayniqsa, shoirning “Kutish masofasi” dostonida yaqqol ko‘rinadi.

Tabiiyki, bugungi she‘rxonni, ayniqsa xos doiraga mansub she‘r ixlosmandini uncha-muncha tashbehlar bilan hayratga solib bo‘lmaydi. Dunyo zamonaviy nazmidan xabardor she‘rxon uncha-muncha kitobni o‘qimaydi. O‘roz Haydar she‘riyatining jozibasi shundaki, so‘zda jilolangan rang-tus o‘quvchini tobora ichkariga tortib ketadi, sira qo‘yib yubormaydi. Shoir yozadiki:

O‘ngda tush ko‘rmoq – oftobda to‘nish,
Shishadek to‘kilar qadimiy sukun.
Bugun shunday kundur–g‘arib va bo‘m-bo‘sh,
Uzr deyishga or qiladigan kun³.

O‘ngda ko‘rilgan tush: qadimiy sukunning shishadek sassiz to‘kilishi; kunning bo‘m-bo‘shligi, she‘r ma‘nosi o‘quvchini sergak torttiradi va shoir hamda she‘rxon o‘rtasidagi masofa tobora qisqaraveradi. ”Aksioma” sherida esa o‘sha holat takrorlanadi, lirik qahramonning go‘zallikka intilish ehtiyoji teranlik kasb etadi:

Insho yozmoqdaman, ammo mavzu yo‘q,
Siyohdonda siyoh bormoqda qurib,

³ O‘roz Haydar. Falak favvorasi. Sonetlar. “Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik Kompaniyasi bosh tahririyati . Toshkent, 2012.

Tasavvur ko‘zida bir oltin baliq,
Iltijo qiladi unsiz qichqirib.

Tamaki ezganday ezib fikrimning
Kepagin elakda elayman raso.
Men dod solganimda mazmunsizlikdan
So‘qirning qo‘lidan uchadi aso.

Shoirning aksar she‘rlarida dastlab lirik qahramonning ko‘nglida nima borligi, u nima xohlashi mavhum tuyuladi. So‘ng astoydil mutolaa barobarida maqsad oydinlashadi. Izlangan yo‘l – Shaxsning mustaqilligi yo‘li. Shaxs inkor vositasida qaramlik zanjiridan qo‘llarini bo‘shatmoqchi. Uning nazdida, o‘ziga tortadigan narsalardan olisroq yurgan ma‘qul:

Har qanday ohangda afsun bor, rabbiy,
Ilon afsunidan dahshatli afsun.
Fikrni bo‘g‘ajak har qandayin kuy,
Beo‘t kuydirajak shuur oynasin.

Yaqin o‘tmish shoirlari she‘riy kitoblarini varaqlab ko‘rsangiz ular ko‘proq ijtimoiy mavzularda qalam surganiga guvoh bo‘lasiz. Bu ham tabiiy hol edi. Negaki, o‘sha davrlarda siyosat bilan she‘riyat majburan birlashtirilgan. Ayni zamonda esa she‘riyat mafkura changalidan butkul qutuldi.

Shoirning dostoni shunday boshlanadi:

Odam o‘z bitini o‘ldirayotganda
Farog‘at tuyadi qonning isidan.
Uch yillik yaraga ko‘nikkan bemor
Yarasin siqmoqdan yayragan kabi.
Nimani gapiray,
Nimani eslay,
Uchayotgan qo‘lu oyoqlarnimi?
Izohga hojat yo‘q.

Ana shu boshlama o'quvchini "Kutish masofasi" dostoni ichkarisiga yetaklab ketadi. Doston mutolaasi bizda kino ko'rgandek tasavvur qoldiradi. Aslida she'r qadrini biladigan o'quvchi uchun sharhu taassurotlar ortiqcha. Teran tushunsa, shoirni maqtamasangiz ham she'rlarini o'qiyveradi.

O'roz Haydar katta shoir, qalbi va qamrovi keng ijodkor. Shoirning shakllanishi va kamolotida bolalik davri, bolalik muhiti muhim rol o'ynaydi. Darhaqiqat, O'roz Haydar she'riyatidagi kenglik u tug'ilib o'sgan bepoyon Chiroqchi dala-dashlarining ta'siri va taassurotlari hosiladek tuyuladi.

Yuraginga sepadi bayot

Moviyligu kengliklar nurday,—

deya sezib-sezmay e'tirof etadi shoir.

Borliq tabiatga, jamiyatga va hayotga yuragini ochib yuzlangan shoir turli narsa-hodisalarda, holat-manzaralarda, o'zgarishu evrilishlarda chuqur falsafiy ma'no-mazmun ko'radi, ularni kongil hukmidan o'tkazib teran badiiy xulosalar – she'rlar shaklida izhor etadi.

Ko'ngil kosasidan toshdi ummonlar

"Ummonlar" she'rida yana o'sha kenglik, teranlik.

Kengliklardan tug'ilgan she'rlar ko'ngillarni tortqilab, biqiq doiralardan ochiqlikka, ruhiy kengliklarga olib chiqadi.

Chorlab o'tgum sirli orolday

Men zaminning kichik nuqtasi.

Shoir she'rlari qaysi zamon va makonda bo'lmasin, insoniyatni hamisha beg'ubor va bepoyon ma'naviy ma'volar sari undaydi. Ruhiy ma'naviy boylik-ma'danlarga kon sirli orol yanglig' ezguliklarga chorlaydi.

Inson bolasi hayotda yolg'iz yashay olmaydi. Lekin hayot beshafqat, o'lim haq. U hech kimdan ruxsat so'rab tashrif buyurmaydi, u hamisha nogahondir. Ajal har kimga har xil qiyofada ro'baro' bo'ladi. O'roz Haydar akasi iste'dodli shoir Nazar Shukur xotirasiga bag'ishlab yozgan "Akamni yo'qlab" nomli she'rida jigarbandini sog'inish hissi, armon, iztirob, alamlar

hissi bo‘rtib turadi. Dunyoning bir kamligi shoir qalbini cheksiz iztirobga soladi:

Meni ulg‘aytirdi sening yo‘qliging,
O‘, olam qayg‘usin qaydan bilibman.
Qayga bosh urayin, kimni chorlayin,
Ruhsiz yo‘lovchidek hayron turibman.

Beg‘ubor bolalik, ota uy, onaning issiq bag‘ri, xonadon xotirjamligi, birdamligidan ko‘ngli to‘q, bag‘ri butun shoir akasining nogahon va bevaqt o‘limidan keyin jigar kuyugi nima ekanligini yurakdan his qiladi, ayriliqning alamli dog‘ini anglaydi, akasining o‘limi uni erta ulg‘aytiradi. Shoir boshini qayga urishni, kimni chorlashni bilolmay qoldi, o‘zini “ruhsiz yo‘lovchi”ga o‘xshatadi. U hayot davomiyligini yaxshi biladi, lekin dunyoning hech qachon tugamaydigan tashvishlari tosh tishlatib qo‘yishidan ojiz banda kabi qo‘rqib qoladi:

Jilg‘a-ku o‘zanin topgay erta-kech,
Bahoriy inqilob qilgay tantana.
Hayot chimdim baxtini qilganida pesh,
Ko‘zlarim tuproqqa to‘lmasmi yana?!

Ha, dunyo qanchalik qadimiy bo‘lsa, hasratlar, alamlar, iztiroblar ham shunchalik qadimiy. Bunga insoniyat tarixi guvohlik beradi. Ba‘zan oshga og‘zing yetganida boshing toshga tegadi. Yillab kutganingga endi yetishay deganingda o‘lim oraga tushadi. Bir ko‘rpada katta bo‘lgan jigarlaring bilan gohida yo‘llaring ayro tushadi. Ba‘zan mehr ko‘rsatib mehrsizlik ko‘rasan, yaxshilik evaziga yomonlik qaytadi. Hammasiga chidaysan, boshqa ilojiyam yo‘q. Insonning boshi toshdan qattiq. Xalqimizda ota-ona o‘lmoq meros, lekin jigar o‘limini ko‘rsatmasin, degan gap bor. Bu gapning ma‘nosini jigari bevaqt o‘lganlar teran his qiladilar. Hamma narsaning yechimini topish mumkin, lekin bevaqt o‘limning alami achchiq, u qalblarni beadam alamga oshno etadi.

Sendan ne merosdir: she‘r va tabassum,

Kulgungday pokligu muqaddas alam.

Majruh yuragimga qasos baxsh etur

Tabassuming bo‘lib yaralgan olam.

Shoirning ma'yus qalbi qatlaridan sizib chiqqan misralarda qaytmas bo‘lib ketgan jigar dardi bor. Hazrat Navoiy: «Ko‘ngilda g‘am yo‘qligi o‘zi g‘amdur, Alam yo‘qligi asru alamdir» deganlarida barcha ijodkorlarning ko‘ngillaridagini o‘rtaga tashlagan edilar. Mehribon birodarisiz shoirning majruh bo‘lib qolgan yuragiga akasining tabassumidek yaralgan olamning pokligi, borligi tasalli beradi. Inson xotiralarda yashaydi, ayniqsa bolalik xotiralari betakror va beg‘ubor bo‘ladi.

Shoir ijodi yil sayin yuksala bordi. Uning ijodida “Armon” nomli she’r bor. Bu she’r umr haqida. SHE’r bizni inson umri haqida mushohadalarga chorlaydi. Azaldan shoirlarni dunyo nima, umr ma’nosi nima? kabi qadimiy savollar qiziqtirgan. O‘roz Haydar ham bu kabi savollardan chetda emas. Mana quloq soling:

Keksayish ham aslida baxtdir,

Ul yoshlikdan tug‘ilgan armon.

Umr – cho‘lda adashib oxir

Karvoniga duch kelgan sarbon.

Insonga bir marta beriladigan umr deb atalgan fursatni haqiqiy insonlarga xos yashay olish zo‘r baxt. Lekin odamlar umrni o‘tar-ketar deb behuda ishlarga, g‘iybat, kayf-safo, bekorchi ishlarga sarf qiladilar, ya’ni ko‘kka sovradilar. Qachonki, umrning qadriga yetganlarida, ”ko‘zni yoshlagan”larida tabiat ulardan yuz o‘giran bo‘ladi!

O‘roz Haydarning lirik qahramonining iroda imkoniyatlari, ko‘nglidan kechgan sadolar shu taxlit fikrlar uyg‘otadi. Lirik qahramonning insonsevarlik tuyg‘ularini voqif etadi.

O‘roz Haydarning lirik qahramoni sodda, to‘pori va dangal, jo‘mardlarcha gapirishni yoqtiradi. Aynan shu badiiy ifoda tarzidagi soddalik va samimiylilik yolg‘iz O‘roz Haydarning tafakkur tarzi uchun xos bo‘lgan xususiyatdir.

O‘roz Haydarning shoir sifatidagi salohiyati havas qilarli darajada ekanligini uning nafis she‘riyati ko‘rsatadi. San‘at asarlari o‘zi yaratilgan davrning ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy hayotini suratlantiradi. Zamondoshlar ruhiyat olami, tabiat voqeligi, jamiyat psixologiyasi bilan omuxtalikda, uyg‘un aks ettiriladi. Bu narsa har bir shoir mansub avlod ijdkorlarining badiiy-estetik dunyosini, ijodiy individualligining alomatlarini, o‘ziga xos boshqa shoirlardan farqlantirib turgan mahorat belgilarini oshkor etadi.

Hayot, ijtimoiy voqelikning O‘roz Haydar avlodi oldiga qo‘ygan vazifalaridan biri – bu shaxsning mustaqilligini izlashi va topishi, millat ozodligi, vatan mustaqilligi shaxs erki masalasi edi. Bu – mazkur avlod badiiy-estetik izlanishlarining o‘zak mohiyatini tashkil etadi. Bu narsa mazkur avlod vakillari she‘riyatidagi badiiy tafakkur madaniyatida, lirik qahramonning falsafiy fikrlash tarzida, ongning tagdor, qatlam-qatlam teran ma‘nolarda ayonlashadi. Aynan shu mohiyat, oqibat O‘roz Haydar mansub avlodning XX asr oxiri va XXI asr boshlari badiiy madaniyatimiz tarixidagi nafis so‘z san‘atidagi tutgan o‘rni va ahamiyatini belgilab beradi.

Mukammal jamiyat, unda ilm-ma‘rifat va adolat ustuvorligiga doir orzular inson yaralgandan buyon u bilan hamroh. O‘roz Haydarning “Musiqor”, “Ruhafzo”, “Qishloq falsafasi”, “Aksioma”, “Oq soya”, “Hayot yorlig’”, “Ikki odam”, “Soyasiz odam”, “Dunyoning mazmunin o‘zgartmoq kerak”, “Kechikka fasl”, “Vaqt iztirobi”, “Fikr” singari ko‘plab she‘rlari shoirning yurak nidosi. Tog‘lar boshidan oqib kelayotgan shalola, yerlar tubidan sizib chiqayotgan buloq suvlari misoli bu she‘rlar O‘roz Haydarning ongi-shuuridan, ko‘nglidan sizib chiqqan tafakkur to‘lqinlari, shaffof sezgilar, tuyg‘ulardir.

Shu ma‘noda O‘roz Haydarning “Aksioma”, “Musiqor”, “Ruhafzo”, “Oq soya”, “Bargrezon”, “Sahro”, “Tazarru”, “Qonli yillar yodi”, “Sukunat sadosi” singari she‘rlari o‘zbek she‘riyatining go‘zal namunalaridir. Ushbu she‘rlardagi umumlashma fikrlarda, hikmatli ma‘nolarda shoir konkret

hayotiy muhitda yashayotgan, o'ylayotgan zamondoshimizning o'ziga xos betakror tabiatini, fikrchan kechinmalarini ko'z o'ngimizda suratlantiradi.

O'roz Haydar lirikasida inson umrining mohiyatida nimalar yotishini mutafakkirona kashf etishga tomon yo'naltirilgan juda go'zal bir pafos hukmronlik qiladi. Shu boisdan, shoir lirikasining asosiy poetik vositalari tiriklikning mag'zini chaqib namoyon eta oluvchi mo'jaz-mo'jaz kartinalar va sermazmun timsollar silsilasidan iboratdir. Uning shoirlik tafakkurida "so'z obrazlar"ga nisbatan manzara obrazlar muhim o'rinni egallashi sabablari ham shubhasiz ana shunda.

Demak, shoir she'rlaridagi lirik qahramonning fikrlash tarzi xilma-xil shakllarda zohir bo'lar ekan. Ushbu hol rang-barang badiiy shakllarni ham yuzaga chiqaradi. O'roz Haydar ana shunday o'z poetik shakllari va tiniq uslubiga egaligi bilan she'riyatimiz rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelgan ijodkordir. U o'zining individual uslubida hayot materiallari taqozosiga javob bera oladigan turfa shakllarni namoyish etib kelgan shoirlar ichida, ayniqsa ajralib turadi.

O'roz Haydar chin iste'dod egasi. O'roz Haydar – odam ko'ngli iqlimlarini teran anglaydigan, qalbdan his qiladigan, tushungan dardli shoir. Zero, chinakam she'riyat darddan, iztirobdan tug'iladi. Shoirning zohiran quvonchli holatning go'zal poetik ifodasi berilgandek ko'ringan misralari zamirida ham elning, yurtning g'amida yashayotgan ko'ngil iztiroblari silqib turadi. Vatan haqida cheksiz mehr bilan yozishining sababu shunda.

Meni kutar o'zimdan ortiq,
Ortiq suyar otamdan ko'ra.
Keng osmonni qiladi tortiq,
Har kun turar holimni so'rab.
Bir qush kabi uchguday bo'lsam,
Parvozimga qanot tutadi.
YO nogahon yo'lda qoqilsam,
Kaftga olib jim ovutadi.

Huv do‘ngalak otam qabridir,
Yonda onam, akamning qabri.
Tog‘u toshlar uning sabridir,
Qurimagan daryolar sabri...

(“Vatan” she’ri)

Shoir osmonga doir holatlarni o‘zgalarning xayoliga ham kelmaydigan tarzda tasavvur etadi. Bu hol O‘roz Haydarga tumanni “nomusdan tikilgan chimmat” tarzida tasvirlash imkonini beradi:

Tuman – yerning chimmati, xolos,
Yopinganda bo‘zarar olam.
Neki narsa jonga tegsa, bas,
Yashiringisi kelar yerning ham.

Oy oldida, quyosh oldida
Goh tushunar qadr-qimmatin.
Yopingisi keladi shunda
Nomusdan tikilgan chimmatin.

(“Tuman” she’ri)

O‘zini tinimsiz tekshiradigan, bosgan qadamini nazorat qiladigan odam uchun yashash hech qachon oson kechmagan. O‘zida yo‘q fazilatlarga mahliyo bo‘lib, olamga shishingan dimog‘ bilan qaraydigan kimsalargina o‘zining har bir ishida tengsiz fazilat, har bir aytganida ulkan hikmat ko‘radi. O‘ziga talabchan odam hayotda nima qilsa ham izlaganiga yetmagandek, maqsadiga erishmagandek tuyulaveradi. O‘zdan qoniqmaslik hissi kishini qiynaydi. Buni shoir "Ikki odam" she'rida shunday ifoda etadi:

Men ikki odamman: zohirim boshqa,
Botiminda yashar boshqa bir odam.
Umr xotimasin bitgandek toshga,
Neligim, kimligim siyratimda jam.

Faqat men qaqnusdek olov ichraman,
Ichimni kuydirsa kuydirsin olov.
Zohiran o‘zimdan darrov kechaman,
Botinim – olovda o‘sguvchi yalov.

Chiqisha olmayman balki shu sabab,
Necha yilki o‘zim bilan bir o‘zim.
Axir, ikki dushman ikkisi, ajab,
O‘ymoqchi bo‘ladi tong qotsam ko‘zim.

Chetdan izlamayman neki dushmanni,
Qarang, ikkisi-da ikkita hakam.
Boshin qovushtiray ikki dushmanni
Deya jon halakman, men –ikki odam.

Insonni anglash, tushunish murakkab. Goh shod, goh g’amgin, goh mag’rur, goh zabun, goh buyuk, goh pastkash, goh g’olib, goh mag’lub inson hayotda isyonlar ichra yashaydi, shoir aytganiday, ” Faqat men qaqnusdek olov ichraman, Ichimni kuydirsa kuydirsin olov. Zohiran o‘zimdan darrov kechaman, Botinim – olovda o‘sguvchi yalov”. O‘zlikni anglash, o‘zlikni topish g’oyasi hamma zamon shoirlari uchun ham alohida mavzu, muammo sanalgan. O‘roz Haydarning ”Ikki odam” she’rini o‘qir ekanmiz, beixtiyor Abdulla Oripovning ”Suvrat va siyrat” she’ri yodga tushadi:

Mayli suvratinga boqqilu quvon,
Lekin siyratinga tashlama nazar.
Bir yoqdan tuganmas baxt berdi jahon,
Bir yoqdan tuganmas o‘kinch va kadar.

Charog’on umrimni yoritgan quyosh
Torgina kulbamga boqmadi goho.

Zamindek aylangan savdoli bu bosh
Qoldi qismat ichra zamindek tanho.

Oh, nechoq ranglarga to'liq bu jahon,
Oh, nechoq shirin shu tiriklik, kadar.
Mayli, suvratimga boqqilu quvon,
Faqat siyratimga tashlama nazar.

Ikki she'rda ham inson hayoti, umri, tabiatidagi nomutanosiblik aks etgan.

O'roz Haydar ana shunday o'z so'ziga ega zabardast shoir. U butun olamga poetik nazar bilan qaray olgan ko'ngil tarjimoni. Peyzaj lirikasi shoir she'riyatining takrorlanmas inkishofidir. Shoir she'rlarida shunday satrlar borki, umidsizlik bilan boshlanib, misralar so'ngida qalbingizda yana Umid urug'ini ekadi:

Ufq uzra yoyildi tuman,
Ko'k ro'molin yerga tushadi.
Oyoqchisoy sohilida man
Yurgaimni nonday ushatdim.

Qarang, qanday ilohiy chiroy,
Suv parisi soyda dur sochar.
Ishq uzugin o'g'irlatib oy
Xayol qizi bilan sirlashar.

Yulduzlar-chi kumush kokilin
To'lqinlarga chayib o'ynaydi.
Tevarakning buzib uyqusin
Shaddod sabo yelib to'ymaydi.

O'pmoq bo'lib osmon ravog'in
Erkalanib bo'y cho'zar terak.

Ha, ertaga, tong sahar chog'i

Har chechakka aylanar yurak.

O'roz Haydarning muhabbat lirikasi ham o'ziga xos musiqiylikka ega. Lirik qahramonning iztiroblari-yu, oshiqning alamli zorlari, xayoliy muhabbat ma'budasining sanamligi tarannum etiladi bunda. Ilk sevgining inson yuragida o'chmas iz qoldirishi, bir umrga ta'qib qilishi "Yana sen saridir intilish gali, Qaytish chog'ida ham senga qaytaman" tarzida o'quvchiga kuchli ta'sir etadi. Lirik qahramonning ayriliqda yonishlari takrorlanmas tashbehlarda aks etadi.

Ishqning jafosidan safo topmasam,

Uzilmagan gulday so'lishim ayon.

Ba'zan lirik qahramon chin muhabbatni qo'msaydi:

Yolg'on muhabbatu chuchmal mehrdan

Bezidim,

O'zni sevmοqdan.

Yoki shoirning: "Otam ishqdir, onam ishqdir, manam Ishqdan, ozoring ishq, bozoring ishq, sanam Ishqdan" deyishiga sabab olamning asosi ishqdir.

O'ziga xos xalqona jaydari falsafali, salmoqli fikrlashlar, teran mushohada va olovli hissiyotlar egasi bo'lgan shoir she'rlari boshqa bir ruhoniylar olam yaratmoqda. Ma'nan va komil odamlar ana shu yorug' dunyoning barkamol fuqarolari bo'lishini xohlaydi.

Inson o'limni eslarkan, tabiiy ravishda vahimaga tushadi, zero, yurilmagan yo'l hamisha sirlidir. Ammo, shoir nazdida yana ham dahshatlisi, "abadul-abad Orzusiz, sevgisiz yashash"dir. Orzusiz, sevgisiz yashashda ma'ni, maqsad, go'zallik, insoniylik yo'q. Bu kabi umr kechirish bema'nilikning o'zginasidir. Shoirning bu xildagi she'rlari shundan shohidlik beradiki, lirik qahramonning fikr-o'ylari yuksak insonparvarlik g'oyalar, olijanob tuyg'ular bilan sug'orilgan. Shoir insonning hayot yo'lida, umri – tiriklik chorrahalarida uchragan odamlarga bo'lgan munosabatida, obyektiv voqelik jarayonlariga bildirgan fikrlarida, fidoyi inson fe'li-faoliyatida

xalqimizning olam va odam taqdiriga kamarbasta insonsevarlik tuyg'ularini ifodalaydi.

Inson umri – kiprik qoqqunchalik lahzalarga teng. Oddiy va sodda satrlar insonning tiriklik saboqlariga aylanmoqda. Bizni har bir kelajak lahzalardan samaralar undirishga, ibratli yashashga undamoqda.

O'roz Haydar she'riyatida tabiat va jamiyat muammolariga keng to'xtalangan. Har bir tabiat hodisasidan o'ziga xos xulosalar chiqarilgan. Quyidagi "Bargrezon" nomli she'r fikrimizni isbotlaydi:

Kunlar hasratini to'kdi shivirlab,
Xazonlar unidan to'lg'ondi jimlik.
Junjikdimi zamin, qo'ydi qimirlab,
Ufq to'zg'ib qoldi ko'chganday qumlik.
Turnalar havorang qanotlarini
Yelpig'ichday yoyib quyoshni yelpar.
Ananaslar kiygan oltin to'nini,
Bo'ylari tuprog'u tog'ni elitar.
Umidsiz odamday so'narib anhor
Bemajol, erinib oqadi sokin.
Qirg'oqdan jilolmay adashgan bahor
Kuzak shamoliga sochadi zorin.
Kunlar hasratida bargrezon yodi,
Mezon iplaridek chuvalansa ham
Davraga chorlaysan tutgancha otim
O', ona diyorim, o', dardi malham

O'roz Haydar uchun so'z moddiy bir narsaki, uni shoir bizga bamisoli hovuchida ushlab uzatadi. Shuning uchun "zamin to'lg'onadi", "kunlar hasrat to'kadi", "adashgan bahor kuzak shamoliga sochadi zorin".

She'riyat shoir bilan o'quvchining dil suhbatlaridir. Shoir uchun bu suhbat – yurakni borlig'i bilan ochmoq, o'quvchi uchun bu yurak zarblarini anglamoqdir. She'rni anglamoq ham o'zi iste'dod. Biz bu

iste'dodning nomini nazokat deymiz, nozikfahmlik deymiz. O'roz Haydarning eng yaxshi she'rlari o'quvchini ana shu dil duhbatiga tortadi, didini tarbiyalaydi.

O'roz Haydarning "Bargrezon" she'rida ham shoirning mahzun kayfiyati hukmron. She'rda tabiat fasllaridan kuz faslida barglarning umri nihoyasiga yetgach, sariq tusga kirib, xazon fasliga yuz tutish holati qalamga olingan. Shoir barglarning xazon bo'lishi holatidan shoirona xayollarga beriladi: dunyo hikmatlarga boy. Tug'ilish bor, o'lim bor, boshlanish bor, tugash bor, ibtido bor, intiho bor, yaxshilik bor, yomonlik bor, ezgulik bor, yovuzlik bor.... Inson muazzam tabiatning bir bo'lagi sifatida uning qonuniyatlari bilan hisoblashishga majbur. Hayotda hech narsa abadiy emas. Shoir tabiat xossalari haqida fikr yuritar ekan, ulardan insonlar hayotiga xos xulosalarga keladi. "Umidsiz odamday so'narib anhor Bemajol, erinib oqadi sokin" misralarida anhorning oqishi hayotdan umidi so'ngan odamga o'xshatiladi. Umidsiz odam – harakatsiz, intilishsiz, maqsadsiz, ma'nisiz yashayotgan, ya'ni shunchaki "kun ko'rayotgan" odam. "Fikr – botiniy qiyofa, odamning, shaxsning ichki qiyofasini ko'rsatib turuvchi ko'zgu. Fikri yo'q odamning qiyofasi ham bo'lmaydi. Fikr odamning o'zligini, o'ziga xosligini bildirib, mavjudligini ko'rsatib, talab qilib turadi. Fikr, aslida "men mavjudman" degani"⁴. Inson hayotda maqsadsiz, fikrsiz yashashi mushkul. Oddiygina misralar zimnida katta falsafiy mazmun yashiringan. "Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo, illat izlaganga illatdir dunyo" deganlaridek, shoirning mas'um qalbi qatlaridan sizib chiqqan misralarda dard bor. Umr o'lchovli, uni shoshib, ezgu ishlarni ko'proq qilishga ulgurib yashashga intilish kerak. Shoir go'zallikning, ezgulikning dardi bilan og'rigan bemor. Uning she'rlari o'quvchilar qalbini to'liqroq egallaydi, xotiralarida abadiy qoladi.

Xulosa qilib aytganda, O'roz Haydar lirik qahramoni tabiatidagi isyonkorlik psixologiyasini namoyon qilish bosh mezon. Yolg'izlik, sukunat,

⁴ Н.Эшонкул. Мендан "Мен"гача. Тошкент, Академнашр, 2014 йил, 14-бет.

ruhiyat, ish-muhabbat, baxt va baxtsizlik haqidagi mulohazalar yuritiladimi, ezgulik va qabohat, yaxshilik va yomonlik, tun va tong, go‘zallik va badbinlik xususida bahs kechadimi, oxirida yagona mohiyatga – lirik qahramon ruhiyatini falsafiy-psixologik yoritishga qaratiladi.

2. O‘roz Haydar sonetlarining badiiy jihatlari.

Iste’dodli shoir O‘roz Haydarning har bir yangi she’riy asarini o‘qigan kishi ijodkor a‘molini isbotlaydigan ana shu badiiyat qonunini his etadi. Darhaqiqat, O‘roz Haydar bugungi she’riyatimizda o‘z uslubiga ega shoir sifatida adabiy jamoatchilik e’tiboriga tushgan. Shoirning ”Aksioma”, ”Oq soya”, ”Vaqt iztirobi”, ”Ruhafzo”, ”Kechikkan fasl” kabi to‘plam va saylanmalaridagi dastlabki an’anaviy usullardagi she’rlaridan tortib jahon she’riyatida ommalshgan uslubda, xususan, eksistensialistlarga xos asarlarida inson qalbidagi muhim ruhiy kechinmalarni tahlil qilish, uning ruhiyatidagi favqulodda va turli tovlanishlarni rangin tuyg’ular, falsafiy talimlar orqali berilishi, eng muhimi, inson hayotidagi butun murakkabliklar, ijtimoiy hayot manzarasining o‘ziga xos poetik ifodalanishi bugungi o‘quvchini befarq qoldirmaydi.

Nazar Eshonqul shoirning ”Kechikkan fasl” nomli saylanmasi (2010) haqidagi maqolasida: ”O‘roz Haydar savqi tabiiy shoir. Uning she’rlarida ko‘ngilning isyoni, silsila-yu g‘alayonning shovur va saslari, evrilish va inkorlari o‘ziga xos ohang, obraz qiyofasida yaxlitlashadi. Shoirning shunday quyma tashbehlari borki, ular bugungi she’riyatimizning o‘ziga xos yutug’ sanaladi”, - degan edi. Shoirning ”Falak favvorasi”, sonetlardan tashkil topgan kitoblarini o‘qigan o‘quvchi insoniy his-tuyg’ulardan, nafis jilolangan badiiy tashbehlardan bahra oladi, dunyoviy nazmga xos ohanglardan zavqlanadi.

Shoirning ”Bayron” sonetida ingliz shoirining zolimlarni abadiy la’natlovchi, grek xalqining milliy ozodlik kurashida jon fido qilgan

qiyofasi bir qadar ochib beriladi. Mazkur sonet boshdan-oyoq muallifning fantastik fikr-xayollari hosilasidir:

Ildizin uzmakka chiranur daraxt,
Daryo tili tugik, termilar karaxt.
Alvido, yalovi so‘nayotgan quyosh.

Bu misralar o‘z vatani – Angliyani tark etgan shoir taqdiriga, ingliz she‘riyatining quyoshi, Belinskiy ta‘rifi bilan aytganda, XIX asr Prometeyning taqdiriga tabiatning achinishi emasmi?

Muallifning ”Bir ayol olisga boqar zoru zor” deb boshlanuvchi sonetini badiiy va g‘oyaviy, shakl va mazmun mutanosibligi jihatidan mukammal asar deyish mumkin. Undagi tasvirda inson qalbining eng nozik kechinmalari – quvonch va qayg‘ular, armon va umidlar, umr va hayot manzaralari chizib berilgan. To‘plamga so‘zboshi yozgan taniqli shoir va sonetshunos Abdulla Sher ham ushbu sonetdagi insondagi besh sezgi bilan idrok etiladigan odamiy va olamiy moddiy narsalar: ayol, yor, o‘g‘lon, qiz, Zuhro, diyor, diyor, ona, ota, tog‘, yulduz kabilarning ifodani anglatishdagi muhim o‘rnini qayd etadi. Darhaqiqat, shoir istiora va o‘xshashlarga boy go‘zal tashbehlarda, ramziy obrazlarda o‘quvchi inson ruhiyatidagi o‘ziga xos dunyo ichiga olib kiradi:

Kengliklar silkinib, titrab yig‘lar soy,
Qizaloq kaftidan to‘kilar tuproq,
Oppoq o‘tov bo‘lib ko‘rinadi Oy...

Inson ruhiyatida kechadigan ana shunday ma‘yus manzaralar, botiniy holatlar, koinotning bir zarrasi bo‘lgan ona zamindagi tabiat jilvalari ”Go‘zal oqshom” deb boshlanuvchi sonetida ham kitobxon kechinmasiga aylana boradi:

Oppoq somon yo‘li – onam allasi,
Ulkan koinotning mangu yallasi,
Asta oq o‘tovin tikadi oydan.

Ziyrak o‘quvchi kitob sarlavhasi ”Falak favvorasi” deb atalishiga e’tibor berishi shubhasiz. Albatta, u dastavval tepaga otilib turadigan favvorasini tasvirlamoqda. Sonetlardagi ”Ajal charxi ipin yigirar ko’lda”, ”Osmonni qog’ozday yoqdim benigun”, ”Go‘yo oyni ko’kka qo‘yganday ilib”, ”Yulduzlar boshida sayraydi yohu”, ”Falakning yuzida chimmat – qora dog’”, ”Falak cholg’uchisi g’am kuyida mast”, ”Onam allasida ko’kning nafasi”, ”Zamin ko’z yoshimdan seskandi-ku jim”, ”Ko’zinga osmon ham qiladir torlik”, ”Yulduzlar –qorachiq so‘qir ko’zdagi”, ”Ey ko’hna koinot – gumbazi dahr” kabi misralarda lirik qahramonning ongu shuuridagi kechayotgan ruhiy holatlar, hayotda bo‘layotgan voqealarga munosabat, o‘z taqdiridan voqif etuvchi insonning dardli qalbidagi turfa ohanglar, majoz – metaforalar bilan bezangan o‘xshatishlar, modern tasviriga xos fikrlash tarzi kitob sarlavhasining mazmun-mohiyatini anglatib turibdi.

O‘roz Haydar rus she’riyati daholaridan Lermontovga ham sonet bag’ishlaydi. Bu sonetlarda buyuk shoirning zolimu kiborlarga nafrati, xalqning erksizligidan chekkan iztiroblari, jo‘shqin va yorqin shaxsiyati yaxshi ochib berilgan. Marina Svetayeva haqidagi sonetlar guldastasida ham siyonkor shoiraning nurli ruhiy olami, iztirobli izlanihlari o‘quvchi qalbini hayajonga soladi.

O‘roz Haydarning barcha sonetlarini ma’no salmog’i va badiiy yorqinligi, teran falsafiy fikrlarga boyligi, emotsional-estetik kuchi bilan istiqloq davri o‘zbek she’riyatining go‘zal namunalaridan deb ayta olamiz.

O‘roz Haydarning «Falak favvorasi» kitobida sonetga bo‘lgan ulkan muhabbatni ko‘rish mumkin. Zero, inson muhabbatga osongina erishmaydi. O‘roz Haydar ham dastlab ko‘p qatori sonetni 14 qatorlik she’r deb tushungan edi. Lekin keyinchalik o‘zi tanlagan janrga ulkan muhabbat, unga barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tish va haqiqiy sonet yaratish imkonini berdi.

O‘roz Haydar o‘ziga xos uslubga ega, bu hamma shoirga ham nasib etavermaydigan ijodiy omad, ilohiy ne’mat. To‘g‘ri, bu uslub oppoq, yarqiroq

emas. Unda qora rang ustuvor. U quyoshdan ko‘ra tundagi osmonni, oq yulduzlarning yorqin ko‘rinishi uchun xizmat qiladigan qorong‘ilikni eslatadi. Unda qora olam oq fikrning yanada yarqirab ko‘rinishi uchun xizmat qiladi. Shu bois O‘roz Haydarning she‘rlaridagi, xususan, sonetlaridagi olamu odam tasvirini tushkunlikka yo‘yish tarzida qabul qilish kerak emas. Ularda osmonu yerning qora rangga bo‘yalgan iztiroblari inson qalbinging oqligini, uning ulug‘vorligini ta’kidlab turadi, xolos. Ayni paytda bu uslubda biz hozir modernizm deb ataydigan badiiy fikrlash tarzini ham ko‘rish mumkin. Kitobning nomiga ko‘z tashlashimiz bilanoq: falakda favvora bo‘ladimi? Falak favvorasi nima —quyoshmi, yulduzlarmi? Favvora yuqoridan pastga qarab otiladimi yoki pastdan yuqorigami? degan savollar tug‘iladi, tushunmagandek bo‘lamiz. Lekin mashhur Boqchasaroy favvorasi — ko‘z yosh chashmasi yuqoridan pastga qarab tomadi-ku! «Yulduzlar —qorachiq so‘qir ko‘zdagi» deydi O‘roz Haydar. Shunday deyish mumkinmi? Bundan, deyarli, bir yarim ming yillar avval xitoylik shoirlar Van Vey va Su Shilar «sukunat gumburlaydi», yapon shoirlari Myoye va Saygyolar «oy nuri jaranglaydi» degan edilar. Demak, shunday deyish mumkin ekan. Shu sababli darhol tushunarli bo‘lmagan, kishini o‘ylashga, izlashga, mushohadaga chaqiradigan, bizni bir oz «qiynaydigan», ko‘zimiz o‘rganmagan bandlar, misralar va timsollarga istehzo bilan qarashimiz insofdan emas. Zero, O‘roz Haydarning uslubidagi bu «qiynoqlar» oxir-oqibat bizni lazzatga, estetik huzurga olib kelishi, shubhasiz. Uning sonetlaridagi ma’yus bir quvonch, zavqli iztirob qalbingizning eng nozik torlarini chertib o‘tadi. Mana bu sonetga bir e’tibor qiling, u goh bulutning ortiga kirib, harirga o‘ralgan, goh bulutni o‘z ortidan ergashtirib yaraqlayotgan to‘lin oyning jamoliga o‘xshaydi:

Bir ayol olisga boqar zoru zor,

Ko‘zidan jim tomar quyoshning izi.

Ko‘ringay tog’ emas, bir toshning yuzi,

Ko‘klam shabadasi zavq bermas zinhor.

U baxtdan yarimmas, suygan yori bor,

Bor shunqor o‘gloni, bor dilbar qizi.

Zuhrodan munavvar tole yulduzi,

Ammo tog’ ortida chorlar bir diyor.

Ba’zan uyqusida to‘lg’onadi jim,

Tushida onasin ro‘moli g’ijim,

Otasin chalg‘isi uchar —oqcharloq,

Kengliklar silkinib titrab yig’lar soy.

Qizaloq kaftidan to‘kilar tuproq.

Oppoq o‘tov bo‘lib ko‘rinadi OY

Agar e’tibor bersangiz, bu sonetda ifoda vositasi bo‘lib xizmat qiladigan xatti-harakatni anglatuvchi so‘zlardan ko‘ra aniq nomlar ko‘p uchraydi. Ular besh sezgi bilan idrok etiladigan jonli va jonsiz, odamiy va olamiy moddiy narsalarning nomlari: ayol, ko‘z, quyosh, iz, tog‘, tosh, yor, o‘g‘il, qiz, yulduz, Zuhro, diyor, ona, ro‘mol, ota, chalg‘i, oqcharloq, soy, qizaloq, kaft, tuproq, o‘tov, Oy. O‘n to‘rt satrli she’rda shuncha moddiy narsa! Lekin, ajabo, ular bo‘rtib ko‘zga tashlansalar ham, siz biror bir o‘rinda go‘zallikning ichidan turtib chiqqan xunuklikni, nazokatga putur yetkazgan qo‘pollikni, moddiyatga xos dag‘allikni sezmaysiz — xo‘rsiniqning tiniq ohangi buzilmaydi, tashqi narsalar sizning ichki hissiyotingizga aylanib ketadi. o‘oyatda murakkab bo‘lgan bu oddiylik qanday ro‘y berdi? Buni O‘roz Haydar ham, men ham, siz ham aytib berolmaymiz. U —iste’dod deb atalgan ilohiy qudratning, ilhom deb atalgan mo‘jizaning ishi.

Endi sonetdagi «ko‘z o‘rganmagan» tashbehlariga —istiora va o‘xshatishlarga nazar soling: tomayotgan ko‘z yosh — quyoshning izi; sermalgan chalg‘i — uchayotgan oqcharloq; kengliklar yelkalari titrab yig‘layotgan ayol bilan birga silkinadi; Oy qizaloqqa aylangan ayolning bolaligi o‘tgan oq o‘tov... Ilg‘asangiz, narsalar emas, ularning mohiyatini anglatgan tashbihlar manzara yaratayapti.

Ayni paytda ushbu qalb manzarasida nafaqat murakkab shakl ustidan erishilgan shoirona g‘alabani, balki sonet falsafasi qonunining to‘liq bajarilganini —bandlarning ichki dialektik aloqadorligi asosida vujudga kelgan mazmun yaxlitligini ham ko‘ramiz. Birinchi katren — tezis: qayg‘uni ifodalaydi (olisga zor-zor boqqan ayol sog‘inchi; uning ko‘zyoshi ichiga joylangan quyosh tomchilab yerga tushyapti; tog‘— ulug‘vorligini yo‘qotgan ulkan toshdevor; ko‘klam shabadasining kuz izg‘irinidan farqi yo‘q). Ikkinchi katren — aksiltezis: quvonchni ifodalaydi (ayolning baxti butun, suygan yori, shunqor o‘g‘li, dilbar qizi, munavvar tole yulduzi, tog‘ ortida ota yurti bor). Tersetlar — sintez: ularda qayg‘u bilan quvonchning dialektik uyg‘unligi aks etgan (ayolning tushida onasi sog‘inchdan parishonxotir, qizim baxtlimikan deb ko‘ngli g‘ash, shundan g‘ijimlangan ro‘moliga e‘tibor ham bermaydi; otasi esa — erkak kishi, pahlavon, sog‘inchini mehnat bilan bosadi: chalg‘isini har sermaganida uning ko‘kka ko‘tarilgan tig‘i yaltirab, xuddi oqcharloq uchayotgandek taassurot uyg‘otadi; baxtli ayolni sog‘inch yig‘latadi, qizaloqligi kechgan joylar esiga tushadi — Oy uning oppoq o‘tovi: go‘zal va olis...).

Shunday qilib, sintezda ayol zotining ma‘yusona baxtdan iborat abadiy o‘zgarmas qismati aks etadi; quyosh bilan boshlangan sonet oy bilan yakun topadi; sonet deb atalgan shaffof tomchida inson ruhining butun bir dunyosini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa O‘roz Haydarning badiiy mahoratini ko‘rsatadi.

3. O‘roz Haydar she‘riyatida badiiy-tasviriy vositalar

O‘roz Haydar shoir sifatida she‘riy san‘atlardan badiiylikka erishishda, tasvirning real va jonli bo‘lishini ta‘minlashda ustalik bilan keng foydalandi. U inson qalbidagi hayajon va quvonchlari, iztirob va orzularini butun ko‘lami va nozikliklari bilan his etadi, ayniqsa, mo‘jaz badiiy lavhalar, jonli sanalar yaratishda shoir katta mahorat namoyish qiladi. Umuman olganda, she‘rda g‘oyaviy butunlikka erishishni O‘roz Haydar badiiylilikning asosiy shartlaridan biri deb hisoblagan. O‘roz Haydar she‘rlari noyob tashbehlarga boy. Uning she‘rlarida o‘zbekona lutf hukmron. Adabiy tilimizda kam qo‘llaniladigan so‘zlarimizni faol istilohga olib kirdi. Buni she‘rlari misolida ko‘rib chiqamiz. Misol:

Chapak chalur bag‘rimda ochun,
Ko‘zlarimda yum-yum yig‘lar qor.
Sig‘dirolmay ichga quvonchin,
Huv soylarda hayqirar Bahor.

Entiktirar bir shirin titroq,
Sakrab-sakrab hayqirgum kelar.
O‘t-o‘landay chirmashib biroq
Oyog‘imga o‘ralur yellar.

Hansiraydi hadsiz kengliklar,
Bag‘rida-chi oq tuman suzar.
Tamshanadi go‘dak kurtaklar,

Novdalarning uyqusin buzar.

(“Bahor sog’inchi” she’ri)

Mazkur she’r bahor haqida yozilgan bo’lib, unda she’riy san’atlar ko’p qo’llangan. “*Chapak chalur bag’rinda ochun*” misrasida dunyo jonlantirilgan. Ya’ni, **tashxis** san’ati qo’llangan. Dunyo insonga o’xshab chapak chalmoqda. Ikkinchi misrada tabiat hodisasi bo’lgan qor jonlantirilmoqda, ya’ni insonga o’xshab harakatlantirigan. Insonga xos bo’lgan yig’lash holati qorga ko’chirilgan. To’rtinchi misrada esa quvonchini ichiga sig’dirolmay yil fasllaridan biri bo’lgan Bahor “*hayqiradi*”. She’rning ikkinchi bandida tabiat hodisasi bo’lgan “*yel*” lirik qahramonning oyoqlariga “*o’raladi*”. She’rning uchinchi bandida manzara yanada quyuqlashadi: “*Hansiraydi hadsiz kengliklar, Bag’rida-chi oq tuman suzar. Tamshanadi go’dak kurtaklar, Novdalarning uyqusin buzar*”. Ko’rganimizdek, O’roz Haydar mahoratli shoir sifatida tabiat hodisalarini “jonlantirgan”. Bu bilan she’rning badiiy bo’yoqdorligini ta’minlagan.

“Kuz ertagi” she’rida shoir intoq san’atidan foydalangan:

Yolg’onmi, gapirib qo’yishdan cho’chib

Tik qotgan askarday jimdir minorlar.

Yashil kimxobini o’g’irlatibmi,

Qartayib, quriqshab qolgan chinorlar.

To’tiqush shodligi kezgan g’oshada

Ilon po’ssti kabi titraydi mezon.

Achchiq bo’y taralar so’ngan gullardan,

Ariqlar tilida o’lgandir azon.

G’udranar esishdan toliqqan yellar,

Yo’liga hech narsa tikmagandek ko’z.

Sarg’aygan bog’larda kezinib uzoq

Kasalmand chol kabi harsillaydi Kuz.

“*G’udranish*” odamga xos xususiyat. Lekin shoir bu holni tabiat hodisasi bo‘lgan yelga nisbatan ishlatgan. Kuzning “*harsillashi*” esa jonlantirish san’atiga misol bo‘ladi. Shoir she’riy san’atlarni o‘z o‘rnida qo‘llaganligi bois, tabiat ko‘z o‘ngimizda jonlangandek go‘yo!

“Ey, gul” nomli she’rida istiora san’ati qo‘llangan:

Ey, gul, ko‘ngil suviga aylan,
Ey, gul, cho‘mil otashkadada.
Asbrim tufroq etdi bul gulshan,
Qanoatda ekdim bir sada.

Bu parchada “*Gul*” so‘zi istioradir. Ma’lumki, istiora arabcha so‘z bo‘lib, asarda u haqiqiy ma’noda ishlatilmaydi, balki ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Ko‘pincha bu ikki ma’no o‘zaro o‘xshashlikka asoslanadi. Bu o‘rinda shoir go‘zal mahbubaga murojaat qilmoqda.

Quyidagi she’rning nomlanishi “Savol va javob” deb nomlangan va bu she’rda ham *savol-javob* san’atidan, ham *talmeh*, ham *kinoya* san’atidan foydalanilgan:

O‘g’il:

–Nega Ibn Sino quvg’inda bo‘lgan,
Surgunda qon yutgan Navoiy bobo?
Xudbinlar, malaylar omonda qolib,
Qatl etilgandir ajab, ne daho?

Ota:

–Ular teng saqlagay yer posangisin,
Yer bo‘ylab sochish-chun aylashgan ta’qib.
Daholar bir joyda to‘plansa agar,
Yer bir tomonga ketardi og’ib.

She’rning birinchi bandning birinchi misrasida mutafakkir olim Ibn Sinoning tarixiga nazar tashlash talmeh san’ati, ikkinchi misrada Navoiy tarixiga nazar tashlash talmeh san’ati, otaning o‘g’ilning savollariga bergan javobida esa kinoya san’ati qo‘llangan.

O'roz Haydar she'rlarini o'qiganimizda g'ayriodatiy so'z va birikmalarga duch kelamiz. Masalan, *qora yomg'ir, shaddod sabo, xayol qizi, osmon ravog'i, sovuq tabassum, yaltiraydi chalg'i tovushi, yig'layotgan she'r, qon qusar dengiz kabilar; oqshom yalmog'izday qo'rqinchli, mulkin qimorga boy bergan kimsadek, o'tda kuygan qushdek, ayoli xo'rlagan yuvosh erkakday, sukunat shiviri uchar shu'laday, onasin sog'ingan boladay, zimistonda yoqqan yomg'irday, o'g'li tashlab ketgan chol kabi ma'yus* kabi noyob o'xshatishlarga duch kelamiz.

Shoirning betakror tashbehlari, noodatiy birikmalari she'rlarining badiiyligini oshirgan, ta'sirchanligini ta'minlagan.

XULOSA

O‘roz Haydarning poetik obrazlari fikrni timsol darajasiga ko‘taradi. Bunda hayotiy faktlar falsafiy mushohadalar yuritish uchun keng imkoniyat beradi.

Shoir she‘riyatida ilgari surilgan bosh ma’noga ko‘ra jamiyat ham, inson ham komillik maqomiga yetishi kerak. Lirik qahramon zamondoshlari ma’naviyatidan mana shu komillik belgilarini axtaradi. Jamiyat oldidagi mas’uliyatini yuksak darajada bajara olmayotgandek o‘z-o‘zidan qoniqmaslik tuyg‘ulariga, mulohazalariga berilib, mutafakkirona badiiy tadqiqot olib boradi. O‘roz Haydarning “Aksioma”, “Oq soya”, “Vaqt iztirobi”, “”Musiqor”, “Ruhafzo” kabi she‘riy turkumlari ana shunday o‘ziga xos izlanishlar samarasidir.

O‘roz Haydarning o‘ziga xos uslubi, ijodiy manerasi uni boshqa shoirlardan ajratib turadi. Uning she‘riyatida milliy o‘ziga xoslik, qashqadaryocha soddalik, do‘lvorlik bo‘rtib turadi.

O‘roz Haydar ijodi xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shoirning badiiy iste’dodi uning ruhiy olamidagi qudratli kuchlar – xalqchillik, insonparvarlik, adolat va haqiqatga xizmat qilish istagi, vatanparvarlik, millatsevarlik ideallariga sadoqati va fidoyiligida yaqqol ko‘rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 2000. .
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008.
3. Normatov U. Talant tarbiyasi. Adabiy o'ylar. – T., 1980.
4. O'roz Haydar. Ruhafzo. Toshkent, Zarqalam nashriyoti, 2006.
5. O'roz Haydar. Kechikkan fasl. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik Kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2010.
6. O'roz Haydar. 101 sonet. Toshkent, “Tafakkur” nashriyoti, 2010.
7. O'roz Haydar. Musiqor. Toshkent, 2012
8. O'roz Haydar. Falak favvorasi. Sonetlar. “Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik Kompaniyasi bosh tahririyati . Toshkent, 2012.
9. O'roz Haydar. Tanlangan asarlar, Toshkent, 2014.
10. Internet ma'lumotlari.
11. www.literatura.uz.
12. [www.http// Literature.uz](http://www.literature.uz)
13. [www.http// Google.O'zbek adabiyoti.uz](http://www.google.uz)

